

**SAYIDO NASAFIY SHE'RYATIDA HARAKATGA VA MEHNATGA
BO'LGAN DA'VAT**

Ro'zmatov Sodiqjon

CHDPU 3-kurs talabasi

Toshmuxammedova Ilmira Suyundikovna

Ilmiy rahbar, CHDPU tyutori

Annotatsiya. Mirobid Sayido Nasafiy tojik xalqining buyuk shoirlaridan hisoblanadi, u mehnatkash va kambag'al oilada voyaga yetib tarbiya topgan, shunga qaramay o'z zamonasining buyuk notiqlar darajasiga etgan. Uning tavallud sanasi 17 asrga borib taqalib,, Nasafda voyaga yetgan va keyinchalik Buxoro madrasasida tahsil olgan va shu joyda kamolga yetgan. Sayido yoshligida hayotning azobu mashaqqatlarni boshidan o'tkazgan. Shu sababdurki o'qishga shavqu zavq paydo qilib, madrasada ilm olgan. Unda shoirlik qobiliyat bo'lib, she'r aytish bilan mashg'ul bo'lgan va tezda nom chiqargan. U 1709-1711 yillarda Buxoroda vafot etgan.

Kalit so'zlar: kambag'al, tahsil, mashaqqat, tavallud, shoir, qobiliyat, she'r, kamol, mehnatkash, madrasa.

Sayido Nasafiy mehnatkash xalqning orzu umedlarini bayon qiluvchi shaxs hisoblanib, ularni harakatga va mehnat qilishga da'vat etgan. Sayidoning o'zi kambag'al hayot kechirgan, shuning uchun sheryatida, o'zining lirik qahramonini bir inson kabi tasvirlaydiki doim hayot uchun harakatda va rizqini topish uchun juddu jahd qilgan bo'ladi. Uning she'ryatida hayot uchun jiddu jahd qilish va harakatni tuxtatmaslik ko'zga ko'rindi. Shoir ta'kidlaydiki tovuqning kabobi faqat harakat qiluvchi insonga nasib qiladi ya'ni yaxshi holatga va hayotning rohatu osoyishtaligiga tashvishu harakat bilan, g'ayrat qilish bilan umumiy qilib aytganda mehnat qilish bilan erishiladi. Shoir g'amga botgan insonni o'rgimchakga

qiylaydiyki o'zining turi bilan pashshalarni tutadi:

Murg'i kabob ro'zii sohibtaraddut ast,
/Tovuq kabobi harakat qiluvchining taomidir/
Dar xona ankabud shikori magas kunad.
/O'rgimchak uyda pashsha ovlaydi/

Sayido kambag'al insonga muhtojlikdan xalos bo'lish uchun bor kuch bilan harakat qilish, o'zining hayotini yaxshilash uchun g'ayrat qilishni aytib o'tadi. Shoir ta'kidlaydiki hattoki ichi bush suyak ham tashvishu harakatsiz qo'lga kiritilmaganidek gado ham o'z rizqini topish uchun xotirjam o'tirmaydi:

Ustuxoni xushk be tashvish kay oyad ba dast?
/Bush suyak tashvishsiz qachon qo'lga kiritilgan/
Az payi ro'zi magar tab'i gado osuda ast?
/Tirikchilik ketidan gadoning kayfiyati osudami/

Hayot uchun g'ayratu harakatga da'vat qilish va shu bilan rizqini topish Sayidoning she'ryatida muhim mavzulardan hisoblanadi. Shoir inson rizqining yozilganiga vu u rizqning kelishi shunga bog'liq ekanligiga qarshi chiqadi. Bu diniy aqida inson rizqini taqdirla havola qilib, shu bilan uni harakatdan tuxtadi. Sayido aniq ishonib aytadiki harakatsiz, ishlamasdan turib rizq muhayyo bo'lmaydi. Ilojsiz kishigina uning talabida bo'ladi:

Be guftugo'y rizq muhayyo nameshavad,
/Suhbatsiz rizq muhayyo bo'lmaydi/
In qufl be zaboni talab vo nameshavad.
/Bu qufl tilning xohishisiz ochilmaydi/

Sayido shunday aqidaga egaki insnonnig murodi osmonidan hosil bo'lsa ham, insonning o'z g'ayrati va harakati orqali hosil bo'ladi. Demak, Sayido rizqning kelishi insonning o'z harakati va mehnati tufayli kelishini aytib o'tadi:

Murod az osmon darxo'rdi ko'shish meshavad hosil,
/Osmonidan murod harakatning loyiqligi hosil bo'ladi/
Dihad xurshedu moh miqdori ravzan ro'shnoiro.
/Yorug'likni berur quyoshu oy teshik miqdoricha/

Keyingi baytda shoir kambag'alni da'vat etadiki o'zining bechoraligiga tan bermasdan, rizq topish uchun mehnat qilisin va bu yulda tog' o'zuvchi Farhod kabi bor kuch quvvatini ishga solib, muhtojlikdan xalos bo'lsin:

Makun az bahri ro'zi peshayi xud benavoiro,
/Rizq uchun kambag'allikni o'zinga kasb qilmagin/
Bineh chun Kuhkan bar dasti xud zo'rozmoiro.
/O'z quling bilan tog'ni uyuvchi kabi qudratingni sinab ko'rgin/

Bu baytlardan shuni bilish mumkin, inson qashshoqlikdan qutulish uchun, harakat qilishi, rizqini qidirishi kerak, biz sabablarini qilmasak rizq o'zidan o'zi kelmaydi. Shoir tog' uyuvchi Farhod misolida mehnatkash kishi, g'ayratli, shujoatli va xalq qahramonini tasvirlagan. Bu yerda shoir Farhodni ibrat misolida ko'rsatyapdi. Hayot uchun kurashish lozim, bir joyda tuxtab qolmaslik kerak, hayotga keldik va bizlarga imkoniyatlar berilyapti undan foydalanish insonning o'ziga bog'lig', odam bolasi harakat qilsa ham yoki qilmasa ham umr o'tadi lekin uni qanday o'tkazish o'zimizning qo'llimizda, bizga tanlash imkoniyati beriladi, xohish o'zimizdandir.

Ro'zii xud az zaminu osmon girad ba zo'r,
/O'zining rizqini yero osmondan olur kuch bilan/
Saxtro' har kas chun sangi osiyo aftodaast.
/ Har kim ustuvor bo'lsa, osiyo toshi kabi tushgandir/

Bundan tashqari Sayido o'zining hunarmandlarga bag'ishlagan masnaviysida, hunarmand va mehnatkash insonlarni ta'riflaydi:

Buti najjori man sarvest yakto,
/Duredgar mahbubam qomatlidir bitta/
Zi sar to moy payvand az tamosho.
/Boshdan oyoq payvandir nazar qilishdan/
Sanavbar istoda bar dukonash,
/Sanavbar tuxtab dukonida/
Taroshad xeshro az bandagonash.
/Qirqur o'zini bandalaridan/

Ba bog'i orzu sarvi tamanno,
/Orzu bog'iga mahbubaning nozi/
Zanad peshi qadi u tesha bar po...
/Tesha urur oyog'ga qomati oldida/

Demak inson biror kasbning yoki hunarning egasi bo'lishi kerak bu yulda duch keladigan mashaqqatlarga sabr qilishi va tuxtamasligi kerak, shunda kutilgan maqsadga erishish mumkindir. Bundan tashqari nonvoyni ham ta'riflab, uning mashaqqatli mehnati haqida so'zlaydi:

Nigori nonvo otashxarob ast,
/Nonvoyning surati olovda vayron bo'ladi/
Zi nonash dinu iymon rivoj ast.
/Uning noni tufayli dini va iymoni gullab-yashnamoqda/
Chi non? - Ruxsori xuboni gulandom,
/Qanaqa non? - gulning chiroyli yonoqlari/
Chi non? - Dar charbu narmi mag'zi bodom.
/Qanaqa non? - yo'g ichida yumshoq bodom mag'zi/
Tamoshoyash barad az jo gadoro,
/Tomosha qilishga eltur gadoni joydan/
Tamannoyash kunad sof ishtihoro.
/Unga sof ishtahani tilaydi/
Buvad surxu safedu puxtayu narm,
/Qizil va oq, pishgan va yumshoq bo'lsin/
Kunad savdoi u bozorro garm...
/Uning savdosi bozorni qizitsin/

REFERENCES

1. Абдуллоев А. Захири Форёбӣ, Душанбе, 1974; Адабиёти форс- тоҷик дар нимаи аввали асри 11. Душанбе, 1979.
2. Ақбаров Юсуф, Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе, 1977.
3. Амонов Раҷаб, таърихи адабиёти тоҷик. Душанбе, 1982.